



TO'XTASIN JALILOV NOMIDAGI DAVLAT AKADEMIK XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRI VA UNING DIRIJO'RI O'ZBEKISTON XALQ ARTISTI PROFESSOR FARUX SODIQOV TO'G'RSIDA

Maxammadjonova Dilnoza Jumaqul Qizi
Guliston Davlat Universiteti

“Xalq cholg'u ijrochiligi” ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Email: dilnozajumaqulovna@gmail.com

Tel: +99888-820-01-17

Ilmiy rahbar: Baxadirov Nail Sharifovich

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14910353>

ARTICLE INFO

Received: 17th February 2025

Accepted: 18th February 2025

Published: 22nd February 2025

KEYWORDS

Orkestr, rekonstruksiya, repititsiya, temperasiya, A. Petrosiyans, F. Sodiqov, cholg'ular, maxorat, T. Qurbonov, M. Bafoyev, F. Alimov, X. Raximov, S. Aliev

ABSTRACT

Ushbu maqolada To'xtasin Jalilov nomidagi uzbek xalq cholg'ulari orkestrining qisqcha tarixi, A. I. Petrosiyans rahbarligida Orkestrning ijro san'ati rivojlangan davri va keyinchalik mashhur badiiy rahbari va bosh dirjori F. Sodiqovning ijodi haqida so'z olib borildi.

20 asr 30 yillarida O'zbekistonga bir gurux musiqa fidoyilari jaxon tajribalariga tayangan holda o'zbek xalq cholg'ularini takomillashtirish ustida katta tajriba olib borishdi. Rekonstruksiya 12 bosqich bir tekisda tempiratsiya qilingan tovush qator tizimi asosida olib borilgan va bu izlanishlar natijasida cholg'ularn sozlanishlari barqarorlashdi va tovushlar oralig'i kengaydi, ovoz kuchlari oshdi, rekonstruksiya qilingan cholg'ular rubob, g'ijjak chang cholg'ularini oilasi yaratilib O'zbekistonda ko'p ovozli xalq cholg'u ansambil, orkestrlari tuzilish imkoniyatlari oshdi va orkestr paydo bo'ldi.

Bu natijalarga erishgan va shu yo'lda umrini bag'ishlagan cholg'ushunos olim, dirjor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor A. I. Petrosiyans 1938 yil Respublikada birinchi bo'lib xalq cholg'ulari orkestrini tashkil etgan asta sekin orkestr Respublikada muxim o'rin egallay boshlaydi. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri oldida turgan dolzarb vazifakardan biri xalq sozandalarini ijrochilik yangi turi bo'lmish ko'p ovozli jamoaviy ijroga jalb etishdan iborat edi.

Orkestr asta sekin respublika ichra shaharlariga gastrollar qilib Qo'qon, Marg'ilon, Namangan shaharlariga borib xalq orasida tanilib ravnaq topadi. Orkestr endilikda respublikadan tashqarisida gastrollar bolsdi. Xitoy, Ukraina, Estoniya, Latviya, Rossiya, Kavkaz orti respublikalarida tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ladi. O'rta Osiyo davlatlaridan Tojikiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston respublikalarida orkestrlar tashkil etila boshladi. Bolalar musiqa maktablarida va o'rta maxsus bilim yurtlarida yoshlar o'rtasida orkestr tashkil etilib faoliyat yuritila boshladi. Orkestr respublikada yosh sozandalar va kompazitorlar yetishib chiqishiga ozini hissasini qo'shdi.

1957 yilda To'xtasin Jalilov nomidagi orkestrga Said Aliyev badiiy rahbar va bosh dirjor etib saylandi. Dirjor orkestrni faoliyatini tubdan o'zgartirib yuboradi. Orkestrni merzobli guruhlaridan ayrim vholg'ularn olib tashlab, piflama sozli guruhga simfonik orkestrni

cholg'ularini kiritadi. Orkestr repertuaridan murakkab asarlarni o'rnini kichik shakldagisodda asarlar egallaydi. Orkestrni ijrochilik yo'lida ikki xil uslub qo'llashni qo'laydi. Orkestr rahbari sahnaga chiqishlariga tomoshabinlarni taklif qilish maqsadida xalq ichida sevimli bo'lgan qo'shiqchilarni taklif etadi. Orkestrni ijrochilikda bu uslubni qo'llash ko'plab sozandalarga ham qoniqatli chiqmay yoqmagan va yahshi natijalar chiqmagan va orkestrni sof ovozini sadolanishiga katta ziyon yetkazgan bu yo'l mukammal bo'lmagan va asta-sekin vaqtlar o'tishi bilan orkestrni ijro saviyasi pasayib ketadi. 1973 yil Respublika tashqarisidagi gastroll safarlariga chiqolmay qoladi. Dirijor qo'llagan bu uslub orkestrni imkoniyatlarini cheklab qolmay orkestr o'z vazifalarini ham bajara olmadi. 1975 yil orkestr Davlat attestatsiyasidan o'ta olmadi.

1976 yildan boshlab O'zbekiston madaniyat ishlari vazirligi tavsiyasi bilan To'xtasin Jalilov nomidagi orkestr badiiy rahbari va dirijori Farux Sodiqov saylandi.

Dirijor Farux Sodiqov 1946 yil 31 dekabrda ziyolilar oilasida tavallud topgan. U yoshligidan musiqa bo'lgan qiziqishi sababli U. R. Glier nomidagi respublika o'rta-maxsus musiqa maktabi -internatida B. Mirzaaxmedov qashqar rubob E. Toshmatov dirijorlik sinflaridan tahsil oladi. U ilk ijrochilik faoliyatini Muqumiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida sozanda bo'lib boshlaydi. 1965-1970 yil Farux Sodiqov Toshkent konservatoriyasining xalq cholg'ulari kafedrasida o'qiydi. U 1971 yil konservatoriyaning opera-simfonik dirijorligi mutaxassisligi bo'yicha o'qiydi.

Farux Sodiqov orkestr jamoasini qudratli, mustaxkam va yuqori ijro maxoratiga ega bo'lgan respublikada professional jamoalardan biriga aylanishiga harakat qildi. Orkestr faoliyatini rivojlantirdi va repertuarlarini kengaytirib o'zbek va jahon kompazitorlarini asarlari bilan boyitdi. Xorijiy klassik kompazitorlarni asarlari Gaydin, Bax, Betxoven, List, Sarasate, Bizet, rus kompazitorlari asarlari Glinka, Chaykovskiy, Shostakovich, Xachaturyan, o'zbek kompazitorlari asarlari S. Boboev, T. Qurbanov, M. Bafayev F. Alimov, M. Tojiyev, X. Raximov asarlari bilan orkestr repertuarini boyitgan. F. Sodiqov rahbarlik qilayotgan xalq cholg'ulari orkestri professional ijrochilik san'ati sohasida erishgan yutuqlari va ommani badiiy-estetik jihatdan tarbiyalashda xamda o'sib kelayotga yosh avlodni komil inson bo'lib yetishishida erishgan muvaffaqiyatlari uchun 1980 yilda "Davlat orkestri" va 1991 yil "Akademik orkestr" unvoni bilan taqdirlandi.

1986 yil F. Sodiqov tashabbusi bilan va bevosita ishtirokida orkestr haqida "Musiqali palitra" film konserti yaratildi. Orkestr 1985 yili Moskvada, 1993 yil Koreyada o'tkazilgan festivallar sovrindoridir. T. Jalilov nomidagi orkestr xorijiy mamlakatlar orkestrlari bilan hamkorlikda tajriba almashinuvi konsertlari va festivallar o'tkazgan. Xususan T. Sodiqov Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Rossiya davlatlarining nufuzli orkestrlariga dirijorlik qilgan. Jumladan Qozog'istondagi Kurmo o'zi nomidagi xalq cholg'u orkestri, Rossiyada N. Osipov nomidagi orkestrlarga dirijorlik qilgan va tomoshabinlarda katta ta'sir qoldirgan. F. Sodiqov Markaziy Osiyo mintaqasida birlashgan xalq cholg'ulari baynalmilal orkestrlarini tashkil etish g'oyasini ilgari surib, Toshkentda 1xakqaro festival o'tkazdirildi. 1994 yil Shimkent shaxrilarida o'tkazila boshlandi. Tolibjon Sodiqov orkestrni yuqori darajalarga olib chiqa oldi. U 20 yildan oshiq vaqt davomida dirijorlik sirlarini pedagogik yo'lda ham o'rgatib kelgan u M. Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat Konservatoriyasida, A. Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat institutlarida dirijorlikdan dars bergan

Xulosa

To'xtasin Jalilovning ijodiy faoliyati o'zining serqirraligi va mazmundorligi bilan musiqa madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan va bunday natijalardan so'ng O'zbekiston

hukumati tomonidan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist va 1999 yil O'zbekiston xalq artisti faxriy unvoni berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilshod, K. (2023, April). O 'ZBEK KINOFILMLARIDA MILLIY MUSIQALARDAN FOYDALANISH HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 4-6).
2. Karimov, D. (2023, April). Muvaffaqiyat Yo 'Lim: Unda Topganlarim Va Yo 'Qotganlarim. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 6-8).
3. Наримова, Г. А., Сиддикова, Н., & Саматова, Г. (2015). Различные подходы в преподавании иностранного языка студентам в неязыковых вузах. Научный альманах, (11-2), 292-296.
4. Ibroximovna, M. S. (2024). FACTORS OF DEVELOPING OF INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH TO CADETS OF MILITARY UNIVERSITY. Лучшие интеллектуальные исследования, 15(1), 159-163.
5. Musayeva, S. I. (2024, May). DEVELOPMENT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE OF CADETS USING INTERACTIVE METHODS. In Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (Vol. 3, No. 5, pp. 276-284).
6. Bahadirov, N. ., Karimov, D. ., & Shukurjonova, X. . (2024). KOMPOZITOR REFAT IBADLAYEV . *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(6), 72–79. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/30166>
7. Наил , Б., Каримов, Д. ., & Шукуржонова, Х. . (2024). АРТУРО ТОСКАНИНИ . *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(6), 65–71. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/30160>
8. Bebetova , M. ., & Karimov , D. . (2024). DUTORCHI SOZANDALAR IJODIGA BIR NAZAR. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(17), 28–30. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/40804>
9. Djurayev, M., & Husenov, J. (2022). STUDIES IN GEOGRAPHY, CONFLICTS AND SOLUTIONS IN APPLIED GEOGRAPHY. *Journal of Geography and Natural Resources*, 2(01), 24